

**FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARIDA «YOSH» TUSHUNCHASINING GENDER
ASPEKTI TADQIQI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7809133>

Axrorova R.U.

f.f.f.d., FarDU,

Jo'rayeva Moxinur Najmuddin qizi

1-kurs, 22.120-guruuh talabasi

Annotation: *In the article, the methodology of understanding and studying the linguistic landscape of the world is related to the problem of the relationship of thought categories to language categories, and thinking is the highest form of reflection of existence and a tool for perceiving the material world, even though language is its material shell, at the core of this shell is thought existence and practicality, consciousness is real in the form of language, and language is the material manifestation of thought is briefly analyzed.*

Annotatsiya: *Maqolada olamning lisoniy manzarasini tushunish va o'rganish metodologiyasi tafakkur kategoriyalarining til kategoriyalariga munosabati muammosi bilan bog'liqligi va tafakkur borliqni aks ettirishning eng yuqori shakli va moddiy olamni idrok qilishning quroli, til uning moddiy qobig'i bo'lsa ham, bu qobiqning zamirida fikr mavjudligi hamda amaliy jihatdan, ong til shaklida real mavjud, til esa fikrning material jihatdan ko'rinishi qisqacha taxlil qilingan.*

Olamning lisoniy manzarasini tushunish va o'rganish metodologiyasi tafakkur kategoriyalarining til kategoriyalariga munosabati muammosi bilan bog'liq. Tafakkur borliqni aks ettirishning eng yuqori shakli va moddiy olamni idrok qilishning quroli, til uning moddiy qobig'i bo'lsa ham, bu qobiqning zamirida fikr mavjuddir. Amaliy jihatdan, ong til shaklida real mavjud, til esa fikrning material jihatdan ko'rinishidir. Biroq, til faqat tilning ko'magisiz shakllantirilgan fikrlarni qayd qiladi va ularni tovushlarda mustahkamlaydi deb taxmin qilish xatodir. Til shu tafakkur jarayonining vositasi, bu jarayonning realligidir. [4:2012] Tushunchalar, mulohazalar va xulosalar shaklidagi tafakkur borliqning nus'hasidir, ammo til fonetikaning, morfologiyaning sintaksisning va h.k. elementlarning ma'lum qonunlari asosida tashkil qilingan murakkab tizim bo'lib, uni borliqning in'ikosi deb atash mumkin emas. Shunday qilib, til fizik olam bilan bevosita bog'liq emas, u faqat tafakkur ko'rinishining shakli bo'lib qolaveradi.

Ayrim tilshunoslar [3:1955] til nafaqat fikrni, balki his-hayajonni, xohishni, tuyg'uni ham ifoda qilishiga va shuning uchun ham uni shu ruhiy jarayonlarning ifodasi deb hisoblash mumkinligiga e'tiborni qaratadilar. Tuyg'ular va xohish til bilan emas, balki fikrlar va tushunchalar orqali bevosita ifodalananadi, chunki insonning g'ayriixtiyoriy ravishda qilgan har bir reflektor reaksiyasi ham til elementiga aylanib ketmaydi. Tilda emotsiyani ifodalash uchun xarakteri bo'yicha rang-barang bo'lgan, biroq bir xil darajada anglangan (leksik, intonatsion, grammatik, sintaktik) shakllar mavjud. Til tizimiga tartibga solingan shaklda kiritilmagan faqat

ayrim tovushlargina ongdan tashqari inson tuyg‘ularining bevosita ifodalovchilari bo‘lib qoladi. Bu masalan, undov so‘zlardir.

Turli-tuman tillarda gaplashuvchi xalqlarning tafakkuri mohiyati jahatidan umimiydir, demak, turli-tuman tillar ayrim umumiy belgilarni ham o‘z ichiga olishdi. Har bir konkret til taraqqiyotining o‘ziga xos xususiyatlari qadimiyyidir, biroq ular tilning universal kategoriyalari chegarasidan umuman tashqariga chiqmaydi. Bu umumiyylik fakti tillarning o‘zlarini ham, olam lisoniy manzaralarini ham qiyosiy o‘rganishni taqozo qiladi.

Tafakkurning mantiqiy kategoriyalari va tilning tuzilishi munosabatlari muammolarini muhokama qilishda tilshunoslik va falsafa tarixida o‘z nuqtai nazarlaridan fikr bildirmagan birorta ham maktab bo‘lmadi. V.Gumboldtdan tortib to hozirgi etnolingvistlarga olimlar tillarning farqlari faktlarini va ularning inson va jamiyat ruhiy olami bilan o‘zaro munosabatlarini tushuntiradigan farazlarni ilgari surishga intildilar va intilishni davom ettirmoqdalar. [2:2022]

Olam manzarasida «yosh» tushunchasini obyektiv ravishda «zamon» kategoriyasidan ajratib bo‘lmaydi deb hisoblanadi. Vaqt fenomeni insonning olam manzarasida qiyos qilib bo‘lmaydigan darajada ishtirok etadi: vaqt sezib bo‘ladigandir, tabiiy jihatdan turli xususiyatlar va holatlarning o‘zgarishlari ko‘rinishida mavjud bo‘ladi. Aynan tabiiy vaqtning bo‘laklari sifatida «yosh», ya’ni muhim o‘zgarishlarning davrlari qayd qilinadi va insonning zamondagi o‘rni belgilanadi. Shu sababli «yosh» so‘zi o‘zining hamma hozirgi ma’nolarida insoniyatning rivojlanishi davomida olingan tajriba va bilimlarni jamlaydi va til sohiblari tomonidan «zamon» fenomenini tushunishga bog‘liqdir. Mos ravishda, «yosh» tushunchasi ancha umumiy bo‘lgan «zamon» kategoriyasi doirasiga kiradi va olam manzarasining bir parchasini aks ettiradi, ayni paytda «yosh» so‘zi bu parchaning verballahuvividir.

Yu.D.Apresyan, N.D.Arutyunova, A.Vejbitskaya, A.A.Zaliznyak, I.B.Levontina, U.V.Raxilina, Ye.V.Urison, A.D.Shmelev, Ye.S.Yakovleva kabi mualliflarning ishlarida alohida o‘ziga xos lingistik konseptlar ajratib ko‘rsatiladi, ular mazkur til uchun xosdir va ikkita xususiyatga egadir: ular mazkur til va madaniyat uchun eng muhim bo‘lgan g‘oyalarni ifoda qiladilar va shu tariqa mazkur olam manzarasini tushunish uchun «hal qiluvchi» bo‘lib qoladilar.[3:2002]

«Zamon» kategoriyasi tasarrufiga kiruvchi «yosh» tushunchasi ham olamning lisoniy manzarasida muhim kategoriya sifatida alohida ajralib turadi. T.V.Sivyanning ta’kidlashicha, zamon kategoriyasini ifodalovchi til birliklari tarkibidan mazmun planida olamning lisoniy manzarasi tashkil topadi. Bular bir necha bir-biriga zid ma’noli leksik oppozitsiyalar to‘plamidan iborat bo‘lib, mos ravishda ijobjiy va salbiy ma’nolarga ega bo‘lgan juftliklarni o‘z ichiga oladi. Bu oppozitsiyalar vaqtning tarkibi (kun/tun, yorug‘lik/qorong‘ilik, yoz/qish va h.k.) va turli ahamiyatdagi ijtimoiy kategoriyalar - yosh, geneologik, ijtimoiy (erkaklarga oid/xotin-qizlarga oid, katta/kichik, yosh/qari va h.k) kabilar bilan bog‘liq.

T.V.Sivyan zamon kategoriyalarini olamning antropotsentrik manzarasiga kiritadi. Hisoblash nuqtasi sifatida immanent, ya’ni hodisaning ichki xususiyatiga xos bo‘lgan, uning tabiatidan kelib chiqadigan vaqt emas, balki insonning vaqtdagi o‘rni olinadi. Vaqt oppozitsiyalari yorug‘lik / qorong‘ilik, kun / tun, shuningdek, «yil», «asr» va «davr» tushunchalarini konseptuallashtirish insonga berilgan muddatni tushunishga asoslangan. Bunga asos bor: olamda inson adekvat mo‘ljal olish uchun o‘zini mana shu daqiqada, mana

shu joyda anglashi kerak. Inson uchun asosiy vaqt birligi sifatida (nikoh orqali tug'ilgandan tortib o'lguniga qadar uning hayoti davri) o'z asri bo'lsa, vaqt ottenkasi «chaqaloq», «yosh yigit, o'spirin / voyaga yetgan qiz», «erkak / ayol», «chol / kampir», «kuyov / kelin», «er / xotin», «beva kishi / beva ayol» kabi leksemalarda namoyon bo'ladi.[5:2005]

Har qanday tilda olam manzarasi tasavvurining antropotsentrik xarakteri uning tarkibiga kiruvchi til birliklari tarkibini qiyoslash hamda verballashuvining o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi.

Shu ma'lumotdan ochiq-oydin ko'rinish turibdiki, «yosh» tushunchasi o'zining ilk anglanish bosqichlarida fransuz tili olam manzaralarida umrning barcha davomiyligi, uzunligi va hatto boqiyligining tasviri sifatida tasavvur qilinib, «vaqt» deb atalgan tushuncha bilan tenglashtiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Apresyan Yu.D. Leksicheskaya semantika. - M.: Nauka, 1974. - 367 s.; Arutyunova N.D. O novom, pervom i poslednem // Logicheskiy analiz yazika. Yazik i vremya. M.: Indrik, 1997. - S.170-200.; Vejbitskaya A. Semanticheskiye universalii i opisaniye yazikov. M.: MGU, 1999. - 778 s.; Raxilina Ye.V. O starom: Aspektualnie xarakteristiki predmetnix imen// Logicheskiy analiz yazika. Yazik i vremya. - M.: 1997. - S. 201-217.; Urison Ye.V. Problemi issledovaniya yazikovoy kartini mira: Analogiya v semantike. - M.: 2003. - 224 s.; Shmelev A.D. Russkaya yazikovaya model mira: Materiali k slovaryu. - M.: 2002. - 224 s.

2. Akhrorova Ruzikhon Usmonovna. LEXICAL-SEMANTIC EXPRESSION OF EARLY YOUTH/JEUNESSE IN FRENCH. International scientific and practical in "MODERN PHILOLOGICAL PARADIGMS: INTERACTION OF TRADITIONS AND INNOVATIONS II". 2022/4/5. - P.166-168.

3. Balli Sh. Obshaya lingvistika i voprosi fransuzskogo yazika. Izd-vo inostrannoy literaturi. - M.:1955. - 416 s./Axanova O.S., Mikaelyan G.B. Sovremennie sintaksicheskiye teorii. - M.: Izd-vo Moskovskogo universiteta. 1963. - 166 s.

4. Kolshanskiy G.V. Logika i struktura yazika. 3-ye izd. -M.: Librokom. 2012. - S.16,18.

5. Sivyan T.V. Model mira i yevo lingvisticheskiye osnovi. - M.: URSS. 2005. - S. 15.